

13-dars. Qorbobo. Asalari

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarni materialning yangi turi - havo pufakchali plyonka bilan tanishtirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish ko'nikmasini rivojlantirish;
- ijodiy fikrlash va loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: Qora karton, havo pufakchali plyonka, oq bo'yoq, turli rangdagi bo'yoqlar, mo'yqalam, suv uchun kichik idish, plastilin, qaychi, yelim, darslik, buyum namunasi.

Tashkiliy qism (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

O'qituvchi savollar beradi:

O'tgan darsda qanday yangi material bilan ishladingiz?

Bu material qanday maqsadda qo'llaniladi?

O'qituvchi o'quvchilarga havo pufakchali plyonkani ko'rib chiqishni va uni gofrlangan karton bilan taqqoslashni taklif qiladi hamda savollar beradi:

Sizningcha, bu plyonka nima uchun ishlataladi? (*Qadoqlash uchun*).

Bu plyonka gofrokartondan qanday jihatli bilan farq qiladi? (*Yaxshi egiladi, g'ijimlanadi*).

Sizningcha, bu xususiyatlar qadoqlashda qanday qo'llaniladi? (*Plyonka bilan buyumni o'rash olish mumkin*).

Havo pufakchali plyonka bilan gofrokarton o'rtaida qanday o'xshashlik bor? (*Ikkala material ham qadoqlash uchun ishlataladi, ikkalasi ham mustahkam va havo qatlamiciga ega*).

O'qituvchi o'quvchilardan biriga darslikdagi havo pufakchali plyonka haqidagi hikoyani ovoz chiqarib o'qishni taklif qiladi.

O'qituvchi savollar beradi:

1. Ixtirochilar nimani yaratmoqchi edilar?

2. Sizningcha, ixtrochilar havo pufakchali plyonkaning muvaffaqiyatli bo'lishini qanday tushunib yetdilar?

Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darslikda ishning ikki varianti keltirilgan: “Qorbobo”lar va “Ari”. Bu ishlar turli murakkablik darajasiga ega bo‘lib, o‘quvchilardan har xil ko‘nikmalarini talab etadi. O‘qituvchiga sinfdagi o‘quvchilar bilan “Qorbobo”lar asosiy topshirig‘ini bajarish tavsiya etiladi.

“Ari” topshirig‘i yuqori murakkablikka ega bo‘lib, u o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni, shuningdek, berilgan vazifani bajarishning turli usullarini topa olish, zarur material va vositalarni izlab topish hamda tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Uni o‘quvchining xohishiga ko‘ra sinfdan tashqarida va kattalar yordamida bajarish tavsiya qilinadi.

Darsning bu qismi tuzilishi bo‘yicha odatdagidek o‘tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o‘quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo‘riqnomasi berilgan.

Amaliy qism (20 daqiqa).

O‘qituvchi ishni baholash mezonlarini e’lon qiladi. Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarurat tug‘ilganda, o‘qituvchi yordam ko‘rsatadi.

Yakunlash va mulohaza (10 daqiqa).

Darsning bu qismi ham tuzilishi bo‘yicha odatdagidek o‘tkaziladi.

Dars yakunida o‘qituvchi o‘quvchilarning erishgan natijalarini baholaydi.

14-dars. O‘yinchoq yasaymiz

Dars maqsadlari:

- o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- konstruksiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- maqsadga erishish uchun harakatlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda bajarish qobiliyatini shakllantirish;
- ijodiy salohiyat va innovatsion fikrlashni o‘stirish;
- muhandislik-texnologik bilim va malakalarni hosil qilish;
- ijodiy fikrlash va loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- rivojlantiruvchi o‘yinlarga qiziqishni tarbiyalash.

Kerakli materiallar:

1-variant: karton quti, shisha idishlarning plastik qopqoqlari, kichik yengil koptokcha, issiq yelim to‘pponchasi, mahsulot namunasi, darslik.

2-variant: plastik butilka, bolalar shirinliklari yoki o‘yinchoqlari o‘rami uchun plastik kapsula, rang-barang yopishqoq tasmasi, mustahkam ip, qog‘oz kesadigan pichoq, darslik, mahsulot namunasi..